

Mustapaqulov Sodiq Ungiboyevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

s.mustapaqulov@mail.ru

INTEGRATIV O‘QITISH ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish masalasi va ularning rivojlantirish xususiyatlari tahlil qilingan va fanlarning integratsiyasiga ahamiyat berilgan.*

Kalit so‘zlar: *integratsiya, metod, kompetentlik, integrativ, kasbiy, rivojlantirish, mutaxasis, kompetensiya, xususiyat.*

Мустапакулов Содик Унгибоевич

Каршинский инженерно-экономический институт

s.mustapaqulov@mail.ru

СВОЙСТВА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОЙ ОБУЧЕНИИ

Аннотация: *В данной статье рассмотрено развитие и анализ свойства развития профессиональных компетенций студентов в основе интегративного подхода и интеграция дисциплин.*

Ключевые слова: *интеграция, метод, компетентность, интегративный, профессиональное развитие, специалист, компетенция, свойства.*

Mustapakulov Sodik Ungiboevich

Karshinsky engineering and economic institute

s.mustapaqulov@mail.ru

PROPERTIES OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS BASED ON INTEGRATIVE LEARNING

Abstract: *This article examines the development and analysis of the properties of the development of professional competencies of students based on*

the integrative approach and integration of disciplines.

Key words: *integration, method, competence, integrative, professional development, specialist, competence, properties.*

Bugungi kunga kelib texnika taraqqiyoti juda tez rivojlanib bormoqda. Har bir soha uchun zamonaviy texnikalar kun sayin yangilanib, mutaxassisdan doimo izlanish talab qilmoqda. Bunday rivojlanish davrida oliy ta'lim muassasalari talabalarini zamon talablariga monand, ish beruvchilar talablariga mos, ishlab chiqarish texnikalarini amaliyotda qo'llay olidagan va jamoaviy ishlay oladigan kadr qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu masalalarning yechimini topish va oliy ta'lim muassasalarda uni amalga oshirish ustida ko'plab islohatlar amalga oshirilib borilyabdi.

Oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'zaro integratsiyasini va kasbga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish bo'lajak kadrlarni tayyorlashda muxim ahamiyat kasb etadi. Barcha fanlarni o'qitish tizimli muvofiqlashtirilgan bo'lishi, bu yagona maqsad – davr talablariga muvofiq kasbiy moslasha oladigan tarmoqli mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan bo'lmog'I lozim. Ta'lim sifatini oshirish – bu bugungi kunda butun jahon hamjamiyatidagi eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Uni hal etish uchun esa, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayoni texnologiyalarini va so'zsiz ta'limning yakuniy maqsadini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Shu kontekstda mutaxassislarni kasbiy kompetentligini va kasbiy moslasha olishi, o'zlashtirgan bilimlarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishi va ish beruvchining talablariga moslasha olishini rivojlantirish zarur.

Olimlarning fikricha kasbiy kompetentlik – shaxsning faoliyatda mustaqil, muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim va ijtimoiylash jarayonida mavjud bilimlari, tajribasiga asoslanuvchi hamda kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalari, tajriba, shaxsiy sifatlari yig'indisidir.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga

oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

<i>murakkab jarayonlarda</i>	<i>noaniq vazifalarni bajarishda</i>	<i>bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda</i>	<i>kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda</i>
----------------------------------	--	--	--

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

<i>o'z bilimlarini izchil boyitib boradi</i>	<i>yangi axborotlarni o'zlashtiradi</i>	<i>davr talablarini chuqur anglaydi</i>	<i>yangi bilimlarni izlab topadi</i>	<i>ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi</i>
--	---	---	--	---

Bo'lajak mutaxasislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda fanlar integratsiyasini amalga oshirish samarali usul bo'lib, u fan mavzularini o'zaro boo'liqligi va fanlar aro bog'lanishlarni talab etadi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilganida, "integratsiya" konsepsiya ikki xil ma'noga ega: *birinchi navbatda*, talabalar atrofidagi dunyoni yaxlit ko'rinishini hosil qiladi (bu yerda integratsiya ta'limning maqsadi deb hisoblanadi), ikkinchidan, u mavzu bilimlarining

yaqinlashishi uchun umumiy platformani topadi (bu yerda integratsiya - o'rganish vositasi). Amalda bilimlarni integratsiyalashuvidan maqsadga yo'naltirilmagan holda foydalanish ko'proq darajada amalga oshiriladi. Uzoq muddatli kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, talabalar fanlarni o'rganishda bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Ularning mustaqil fikrlashga ega emasligi, olingan bilimlarni o'xshash bo'lgan masalalarga tatbig'i yoki boshqa holatlarga o'tkazish qobiliyati kabilar shakllanmagan bo'ladi.

Ta'lim faoliyatida umumiy motivatsiya asosida talabalar turli mavzularga aniq munosabatda bo'lishadi. Mavzuning kasbiy ta'limga yo'nalgan bo'lishi muayyan bilim sohasiga bo'lgan qiziqish va uning bir qismi ta'lim sifatiga moslashish, obyektni o'zlashtirish kabi qobiliyatlarning muhimligi bilan belgilanadi. Aniq va tabiiy-ilmiy fanlarini o'qitish metodlari quyidagilarni ta'milash kerak: kasbiy va amaliy ahamiyatga bog'liqlikni; aniq va tabiiy-ilmiy fanlarini umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bilan birlashtirilishni; matematik dasturlar yordamida talabalarning kognitiv ishlashini; rag'batlantirishni. Bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida laboratoriya ishi va kompyuter dasturlarini integratsiya qilish amaliyoti quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi: nazariy kurs bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va amaliy tahlil qilish; mashg'ulotga qiziqishni va mashg'ulotning motivatsiyasini kuchaytirish; axborot taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish (rang, animatsiya, musiqa, ovozli nutq); talabalarning xotira, his qilish, fikrlash va hokazolarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, individuallashtirilgan ta'limni yaratish.

Xulosa qilib aytganda, aniq va tabiiy-ilmiy fanlarini umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bilan integratsiyasi asosida amalga oshiruvchi o'qitish shakllarini kombinatsiyalash, turli daraja va yo'nalishlarda integratsiyalashishni qo'llash bo'lajak mutaxasislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fayzullaev, K., Mamatov, F., Mirzaev, B., Irgashev, D., Mustapakulov, S., & Sodikov, A. (2021). Study on mechanisms of tillage for melon cultivation under the film. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 304, p. 03012). EDP Sciences.
2. Мустапакулов С. У., Мирзаев О. А. Изучение и анализ влияния конструкции питающего столика прядильной машины на качество пряжи //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 6-2 (151). – С. 38-42.
3. Мирзаев О. А., Боймуратов Ф. Х., Мустапакулов С. У. Механизмлардаги таркибли тишли цилиндрларнинг деформациясидаги ҳолат таҳлили //Инновацион технологиялар. – 2022. – Т. 1. – №. 4 (48). – С. 33-38.
4. Fayzullayev, K., Irgashev, D., Mustapakulov, S., & Begimkulova, M. (2021). Raking plates of the combination machine's subsoiler. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04039). EDP Sciences.
5. Nazarov, A., Sharipov, S., Yusupov, R., Mustapaqulov, S., & Jamanqulov, X. (2020). Methods for conducting a course project on machine parts. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(6), 1546-1549.
6. Ungiboyevich M. S. Modeling Of The General Sciences Teaching System In Higher Education Institutions On The Basis Of Interdisciplinary Integration //Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 76-79.
7. Ungiboyevich, Mustapakulov Sadik, and Boymuratov Farrukh Khamzayevich. "Development of Professional Competence of Students on the Basis of a Systematic Approach as the Theoretical Basis of Educational Integration in Higher Education Institutions." *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture* (2993-2637) 1 (2023): 295-298.
8. Ungiboyevich, Mustapaqulov Sodiq. "“Texnik mexanika” fanini o’qitish

- jarayonida interfaol uslublarni qo'llash." *Journal of new century innovations* 19.7 (2022): 11-14.
9. Норчаев Д. Р., Норчаев Ж. Р., Мустапакулов С. У. Технические средства для возделывания овощей и картофеля к мотоблоку //наука и инновации-современные концепции. – 2020. – С. 120-125.
 10. Мустапокулов Х. Я., Куралов Б. А., Мустапакулов С. У. Об одном инвариантном многозначном отображении в управляемых колебательных системах //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-3 (61). – С. 12-15.
 11. Allanazarovich A. E. F.N.A., Mustapaqulov Q. N. M. T. S. S., Shaykulovna S. U. H. L. The Theory of the Development of Innovative Engineering Activities.
 12. Norchayev D. R., Norchayev J. R., Mustapakulov S. U. Technical equipment for cultivation of vegetables and potatoes to the motoblok //Modern concepts collection of scientific articles based on the results of the work of the International Scientific Forum. – T. 1. – С. 120-125.
 13. Fayziyevich, A. E., Allanazarovich, N. A., Nodir Murodullayevich, Q., Serabovich, T. S., Ungiboyevich, M. S., & Shaykulovna, H. L. (2021). The Theory of the Development of Innovative Engineering Activities. *Design Engineering*, 5872-5878.
 14. Маматов, Ф. М., Файзуллаев, Х. А., Иргашев, Д. Б., Мустапакулов, С. У., & Нурманова, М. С. (2021). Комбинациялашган машина чуқурюмшаткичлари орасидаги бўйлама масофасини асослаш. *Инновацион технологиялар*, (Спецвыпуск 1), 125-128.
 15. Ungiboyevich, Mustapakulov Sadik, and Karimov Abror Kayumovich. "Application of interactive methods in the process of teaching the subject" machine details"." *образование наука и инновационные идеи в мире* 46.4 (2024): 18-21.
 16. Ungiboyevich, Mustapaqulov Sodik. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim integratsiyasining nazariy asosi sifatida tizimli yondashuv asosida

- talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish." *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari* 1.3 (2023): 82-86.
17. Sodiq, Mustapaqulov. "tle* "texnik mexanika" fanini o'qitishda bo'lajak muhandislarning kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. " *Innovations in Technology and Science Education* 2.9 (2023): 433-439.
18. Мустапақулов С. У. Шестерня тишларининг ейилиш жараёнида иштирок этувчи абразив зарралар ўлчамини ҳисоблаш //journal of innovations in scientific and educational research. – 2022. – Т. 5. – №. 4. – С. 147-150.
19. Содик, С.У Мустапақулов. "Автомобиллардаги қўшимча охирги узатманинг кучлар контури ёпиқ бўлгандаги ейилишга чидамлилигини аниқлаш." *Scientific Impulse* 1.3 (2022): 260-265.
20. Irgashev D., Mustapaqulov S., Sodiqov A. Machine for police seedling under tunnel film in dry open fields //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 139-143.